

bosqichlarning har biri uchun ijodiy faoliyatni talab etadi. Ijodiy faoliyat esa o`qituvchilar oldiga juda katta ma`suliyat yuklaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tolipov O`Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tadbqiqiy asoslari Toshkent: "Fan"2006
2. Asqarov I.R. ,To`xtaboyev N.X. ,G`opirov K. Kimyo 8 sinf darsligi Toshkent: "Yangiyul polygraph service"2019
3. Aniq va tabiiy fanlarni o`qitishning zamonaviy metodologiyasi. Forum materiallari to`plami Toshkent-2016.
4. Maktabda kimyo jurnali 2019 yil 9 son
5. www.ZiyoNet.com

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM-TARBIYA AN'ANALARI

**Qahhorova Sadoqat Madaminovna**

*O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati  
Oltiariq tumani 42-umumta'lim maktabi o'qituvchisi,*

**Egamberdiyeva Sevaraxon Madaminovna**

*O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati  
Oltiariq tumani 18-umumta'lim maktabi o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** maktab ta'limida ta'lim -tarbiya an'analari xususida, o'tmishdagi buyuk allmalarimiz xususida gap ketgan. Ularning ibratli hayot yo'llari namuna sifatida ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** buyuk shaxslar, xalq madaniyati, voqea -hodisalar, xalqimizning mard va qahramon farzandlari, teran fikr, zukkolik

Shunday shaxslar bo'ladiki, ilm-fanning turli sohalarida qalam tebratib, xalqning ma'rifiy- ma'daniy o'sishiga salmoqli ta'sir ko'rsatuvchi, uning tarix soxasida kimligini ko'rsatuvchi asarlarlar yozib qoldiradilar. Ular xalqning madaniyat xazinasida nyob, nodir boylik bo'lib sanaladi va bir umr ash'yoviy dalil sifatida xizmat qiladi. Yana bir xil shaxslar bo'ladiki, ular hech qanday narsa yozib qoldirmaydi. Hayoti turmush lavhalari, bosib o'tgan yo'li manzaralari, yashash tarsi va manzaralari, tajribalari, jamiyatda tutgan o'rni va mavqeyi, el-u yurtida qozongan obro'- e'tibori va bunga sabab bo'lgan omillar, voqea va hodisalar ta'lim va tarbiya vositasi sifatida xizmat qilishga qodir hisoblanadi. Tarix sahifalariga nomi zarhal harflar bilan yoziladigan ana shunday buyuk ba suyuk shaxslar haqida qancha gapirsak ham shuncha ozdek tuyulaveard.

Buyuk shaxslar hayotiga razm solar ekanman, ulardagi aql-u donish, sabr va matonat, zukkolik, teran fikrlash kabi ko'plab ijobiy xislatlarini ko'rib, ochg'li haron qolaman. Ular o'rgatgan o'gitlarni hayot tarzim davomida qo'llashga, bo'lishimiz shubhasiz.farzandlarim va o'quvchilarim qalbida shu ezgu fazilatlarini shakllantirishga astoydil harakat qilaman. Tarixga nazar solar ekanman, buyuk shaxslarning har sohada o'ziga xos hayot va ilm maktablarini yaratib ketganliklarini guvohi bo'lishimiz shubhasiz.

O'zbek xalqi entikib kutgan mustaqillik ayyomi qalblarimizga bir olam quvonch olab kirish bilan birgalikda bizning buyuk o'tmishimiz tarixiy boy an'analalarimiz xususida ham keng va atroflicha tahlil va xulosa chiqarish imkonini yaratib berganligi ayni haqiqat desam aslo mubolag'a qilgan bo'lmayman.

Bu xalqimizning qaramlikdan ozod bo'lib, mustaqillik erishish shodiyonasidir. O'tmishda ota-bobolarimiz, buyuk allomalarimiz, uksak ma'rifat sohiblari baxt-saodatini ozodli, erkinlikda ko'rishganlar, shuningdek vatan va xalq istiqboli, baxtiyor

tumush, fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq ekanligi haqida ta'lim berganlar.

Zotan ta'lim-tarbiyada hikmat ko'p. Shuning uchun Al- Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Az- Zamahshariy, Imom Buxoriy, Ulug'bek, Alisher Navoiy singari ko'plab daholar ilm va fan, adabiyot va san'at, umuman madaniyatni rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shganlar.

Xalqimizning mard va qahramon farzandlaridan Jaloliddain Mangberdi Xorazmshox, Amir Temurlarning hayoti, ularning bosib o'tgan yo'llari, butun faoliyati buguhgi va kelgusi avlodlar uchun ibratli ekanligini hamisha yodimizda tutishimiz lozim deb o'ylayman. Chunki o'sha fan arboblari-yu, xalq qahramonlarining faoliyati har tomonlama tahsinga sazovor, tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Yuqorida zikr qilingan, ta'kidlab o'tilgan buyuk va suyuk Inso ijtimoi nlarining merosi ilmiy- nazariy jihatdan ozmi- ko'pmi o'rganilishi, albatta, yosh avlod uchun juda katta yutuq hisoblanadi. Biroq o'sha merosning pedagogik qirralari atroflicha, mukammal tadqiq qilinmadi, desak yanglishmagan bo'lamiz, nazarimda. Xolbuk, endigina mustaqillikka erishgan paytlarimizda xalqimiz mafkurasini puxtaroq tarbiyalashda ilmiy va madaniy an'analar, urf- odatlar. Milliy qadriyatlarni keng ko'lamda targ'ib va tashviq etish nihoyatda muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilgani barchamizning yodimizda bo'lsa kerak, to'g'rimi? O'zini millatparvar va xalqparvar deb hisoblagan har bir ziyoli xuddi shu narsaga e'tiborini qaratgani ham yodimizdan also chiqqan emas deb umid qilaman. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarnig hayo va turmush darajasi fan va turmush darajasi bilan bevosita bog'lidir. Fan va madaniyat rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay yo'sinda olb borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi.

O'zbekston mustaqillika erishgandan keyin ta'lim- tarbiya sohasida, milliy axloq- odobni qayta tiklash borsida, milliy urf- odatlar, turli- tuman an'analarni joy-joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burulishlar bo'lgani barchamizga juda ham yaxshi ma'lum. Biz yuqorida qadriyat so'zini tilga oldik, bu kehg qamrovli, purma'no, hikmatli so'zdir. Zotan, o'z qadrini bilmagan kishiga gapirish behuda. Unday inson boshqalar qadriga ham yetmasligi tabiiy bir xol hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Komiljon Hoshimov, Safo Ochil "O'zbek pedagogikasi antologiyasi", Toshkent O'qituvchi nashriyoti 2020

2. R. Ishmuhammedov, M. Yuldashev, "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" 2014

## BIOLOGIYA FANIDA RUS TILIDAN FOYDALANISH METODLARI

**Turdimatova Shahnoza Muhammadovna**

*O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati  
Oltiariq tumani 18-umumta'lim maktabi o'qituvchisi,*

**Axmadjonov Asilbek Farxodjon o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati  
Oltiariq tumani 18-umumta'lim maktabi o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** *Biologiya fanida rus tili faniga qiziqishni oshirish va fanni o'zlashtirish yanada samaradorligi*

**Kalit so'zlar:** *rus tili, jahondagi o'rni va nufuzi, turli sohalarda qo'llanilishi, biologik atamalar, odam anatomiyasi, tana azolar*

Rus tili (рус. Русский язык) — jahonda keng tarqalgan tildir. Rus tili Birlashgan millatlar tashkilotidagi 6 rasmiy tildan biridir va tashkilotning ishchi tilidan biri sanaladi. Avval SSSRda, so'ng MDHda millatlararo va davlatlararo aloqa vositasi.

Rus tili lahja va shevalari 2 ga: shimoliy velikorus ("o" lovchi) va janubiy velikorus ("a" lovchi) guruhlariga bo'linadi; o'rta rus shevalari mazkur har ikkala guruh xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. 16—17-asrlarda shimoliy va janubiy lahjalar chegarasida bo'lgan Moskvada o'ziga xos koynе (umumiy lahja) shakllanib, u namunali tilga aylanadi.

Rus tili flektivsintetik tillardan bo'lib, unda 3 ta grammatik jins turkumsi, otlarning 3 xil turlanishi, fe'llarning 2 xil tuslanishi mavjud; ko'makchilar predlog ko'rinishida, ya'ni o'zi bog'lanadigan so'zlar oldidan joylashadi.

Hozirgi rus alifbosi Kirill yozuvi (kirillitsa)ga asoslangan (qarang Rus alifbosi). Unda bitilgan eng qadimiy yodgorliklar 11-asrga taalluqlidir. 20-asr o'rtalaridan boshlab butun jahonda rus tilini o'rganish keng tarqaladi. Rus tili dunyodagi 100 dan ortiq mamlakatda o'qitiladi. 1967 yilda Rus tili va adabiyoti o'qituvchilarining xalqaro assotsiatsiyasi, 1973 yilda A.S. Pushkin nomidagi Rus tili instituti tashkil etilgan. Sovet davrida O'zbekiston SSRda va ittifoqdosh respublikalarda rus tilini o'qitish-o'rgatishga alohida e'tibor berilgan.. Hozirgi paytda ham O'zbekiston respublikasida rus tilini o'rgatish ahamiyati katta, sababi boshqa tillar bilan bir qatorda umumta'lim maktablarida boshqa fanlarda qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Misol uchun biologiya fanini olsak.

Biologiya (yunoncha bios, „hayot“; va „bilim“) hayot va u bilan bog'liq masalalar tadqiqotidir. U empirik fanning jonli organizmlarning tuzilishi, funksiyalari, o'zgarishi, kelib chiqishi, evolyutsiyasi va o'lishini o'rganuvchi sohasidir. U turli organizmlarni saralaydi, ularning ishlashini, turlarning paydo bo'lishini, ularning o'zaro va atrof-muhit bilan munosabatlarini tasvirlaydi. Biologiya botanika, zoologiya, fiziologiya kabi turli ostsohalarga bo'linadi. Biologiya tirik tabiat to'g'risidagi bilimlar tizimini birlashtiruvchi fan sifatida namoyon bo'ladi. Chunki bu fanda ilgari o'rganilgan dalillar tarixiylik nuqtai nazaridan

ma'lum tizimlarga keltiriladi va ularning yig'indisi organik olamning asosiy qonuniyatlarini aniqlashga imkon yaratadi. Ana shu qonuniyatlar asosida tabiatdan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish va qayta tiklash ishlari amalga oshiriladi. Hozirgi kunda biologiyaning turli sohalarida quyidagi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanib kelinmoqda. Bularga kuzatish, taqqoslash, tarixiy va eksperimental usullar kiradi. Kuzatish usuli. Eng dastlabki usullardan biri bo'lib, uning yordanida har qanday biologik hodisani tasvirlash, ta'riflash mumkin. Keyinchalik bu usuldan turlarni aniqlashda ham keng foydalanilgan. Bu sohada K. Linney juda katta muvoffaqiyatlarga erishgan. Bu usul bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Biologiya (bio...va..logiya)— tirik tabiat haqidagi fanlar majmuasi. Biologiya hayotning barcha ko'rinishlari: tirik organizmlar va tabiiy jamoalarning tuzilishi va funksiyasini, tirik mavjudotlarning kelib chiqishi va tarqalishi, ularning bir-biri va yotirik tabiat bilan o'zaro bog'lanishini o'rganadi. Biologiyaning asosiy vazifasi tiriklikning namoyon bo'lishi qonuniyatlarini o'rganish, hayotning mohiyatini ochib berish, tirik organizmlarni sistemaga solishdan iborat. Biologiya fanlari sistemasi bir necha fanlardan tarkib topgan. Tadqiqot ob'yektiga binoan Biologiya botanika (o'simliklarni o'rganadigan fan), zoologiya (hayvonlarni o'rganadigan fan), odam aiatomiyasi va fiziologiyasi (odam organizmining tuzilishi va funksiyasini o'rganadigan fan), mikrobiologiya (mikroorganizmlarni o'rganadigan fan) va gidrobiologiya (suvda yashovchi organizmlar haqidagi fan)larga bo'linadi. Bu fanlar o'z navbatida birmuncha kichikroq tarmoklarga ajratiladi. Shu bilan birga biologiya fanlarining bir-biri bilan va boshqa fanlar bilan qo'shib ketishi tufayli bir qancha kompleks fanlar shakllangan (mas, sitogenetika, sitoembriologiya, ekologik genetika, ekologik fiziologiya). Biologiya fanlarini tadqiqot metodlariga binoan ham alohida fanlarga ajratish mumkin. Maye, organizmlarning tarqalishini biogeografiya, to'qima va xujayralar tarkibini biokimyo, fizik jarayonlar va metodlarni biofizika o'rganadi. O'z navbatida bu fanlarni ham tekshirish ob'yektlariga binoan alohida fanlarga ajratish mumkin (mas, o'simliklar biokimyosi, hayvonlar biokimyosi). Biokimyoviy va biofizik metodlar ko'pincha o'zaro qo'shib yoki boshqa fanlar bilan birgalikda yangi fanlarni hosil qiladi (mas, radiatsiyey biokimyo, radiobiologiya). Biologik tadqiqotlardan oliigan natijalarni taxlil qilish va umumlashtirishda biometriya, ya'ni biologik mat. katta ahamiyatga ega. Tirik organizmlar tuzilishini o'rganish darajasiga binoan ham bir qancha fanlar shakllangan (mas, molekulyar biologiya, gistologiya, anatomiya, ekologiya va boshqalar). Biologiyaning bevosita amaliyot bilan bog'langan masalalarini parazitologiya, gelmintologiya, immunologiya, bionika, kosmik biologiya kabi fanlar o'rganadi. Insonni biologik evolyutsiya mahsuli va ob'yekta sifatida antropologiya, ijtimoiy hayot mahsuli sifatida sotsial biologiya o'rganadi. Umumta'lim maktablarida biologiya fani o'qitilishi o'quvchilar uchun uchun qiziqarli va tushunarli bo'lishi uchun boshqa fanlardan ham foydalaniladi, Buning misolida rus tili fani.